

Qashqadaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025- yil yanvar-oktabr oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-oktabr oylarida, Qashqadaryo viloyatida jami 14 232,5 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 117,5 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Qashqadaryo viloyati	14 232,5	117,5
G'uzor tumani	618,2	74,8
Dehqonobod tumani	150,5	108,1
Qamashi tumani	223,6	110,7
Qarshi tumani	1002,7	150,0
Koson tumani	691,8	108,7
Kitob tumani	428,0	130,0
Mirishkor tumani	157,1	146,6
Muborak tumani	599,0	96,6
Nishon tumani	787,6	142,9
Kasbi tumani	194,9	129,2
Ko'kdala tumani	113,0	114,0
Chiroqchi tumani	587,4	108,3
Shahrisabz tumani	469,3	116,6
Yakkabog' tumani	377,5	116,7
Qarshi sh.	4012,0	125,0
Shahrisabz sh.	473,6	117,3
Taqsimlanmaydigan hajm	3346,3	115,2

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2025- yilning yanvar- oktabr oylarida Qashqadaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 74,4 % ulushni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 116,5 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 11,2 % ulushni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 120,5 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 14,4 % ulushni va 2024- yilning mos davriga nisbatan 135,1 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	825,0	449,2	1 306,4
<i>o'sish sur'ati, %</i>	125,7	131,1	118,4
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	7 970,7	1 147,0	733,5
<i>o'sish sur'ati, %</i>	151,0	178,1	148,1
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	1 800,6	-	-
<i>o'sish sur'ati, %</i>	119,4	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025- yilning yanvar-oktabr oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 4 084,2 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 135,7 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 3,7 % ga ko'payib, 28,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 43,0 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 111,2 % ni tashkil etgan holda 6122,5 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 28,3 % ni yoki 4 025,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 111,7 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Qashqadaryo viloyati	4084,2	6122,5	3 554,2	135,7	111,5	111,7
G'uzor tumani	91,7	394,1	132,4	29,8	107,5	87,4
Dehqonobod tumani	6,1	40,2	104,2	136,2	94,5	113,1
Qamashi tumani	7,5	89,0	127,1	42,8	121,5	114,4
Qarshi tumani	452,5	433,9	116,3	232,8	112,7	130,1
Koson tumani	99,4	419,1	173,3	68,6	117,2	129,9
Kitob tumani	89,5	158,4	180,1	246,2	121,2	110,7
Mirishkor tumani	39,2	57,4	60,5	154,1	132,5	157,6
Muborak tumani	376,8	168,8	53,3	88,1	110,6	134,7
Nishon tumani	618,6	111,0	57,9	143,7	137,9	143,9
Kasbi tumani	31,8	99,9	63,2	378,6	130,5	95,3
Ko'kdala tumani	2,4	91,8	18,8	-	108,2	131,5
Chiroqchi tumani	202,7	166,5	218,2	133,7	116,6	87,5
Shahrisabz tumani	38,8	347,6	82,8	196,2	109,1	129,3
Yakkabog' tumani	10,7	237,7	129,1	72,8	113,4	130,4
Qarshi sh.	1556,8	2263,4	191,8	172,1	105,7	117,5
Shahrisabz sh.	128,2	254,1	91,3	132,9	117,1	100,9
Taqsimlanmaydigan hajm	331,5	789,6	2 225,1	146,9	115,5	111,4

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Kasbi tumanida (2024- yilning mos davriga nisbatan 378,6 %), Kitob tumani (246,2 %) va Qarshi tumanida (232,8 %) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Nishon tumani (2024-yilning mos davriga nisbatan 137,9 %), Mirishkor tumani (132,5 %) va Qamashi tumanida (121,5 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'iy nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:	Ijrochi:	Manzil:
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi	G. Ziyatova 75 221-32-47 (7020)	180100, Qarshi shahri., Mustaqillik ko'chasi, 2 B-uy